



ASOSIY VOSITALAR SOTIB OLISH UCHUN KREDIT
MAHSULOT PASPORTI

MSE-2-P

1	Mahsulot toifasi	Asosiy vositalar sotib olish uchun
2	Mahsulot turi	Kredit
3	Sohalar (tarmoqlar)	Risk tomonidan taqiqlangan tarmoqlardan tashqari barcha tarmoqlar
4	Mahsulot kodi	MSE-2-P
5	Mijoz segmenti	Mikro va kichik biznes
6	Mijozlar turi	Yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar
7	Start up	Ko'zda tutilmagan
8	Mijozlarni aniqlash	1) Bankning mavjud mijozlari (ETBc) — Kredit arizasi topshirilgan sana holatiga ko'ra Ipoteka-bankda hisobvara q ochib, kamida 6 oy davomida faoliyat yuritib kelayotgan mijozlar; 2) Bankning yangi mijozlari (NTBc) — Kredit arizasi topshirilgan sana holatiga ko'ra Ipoteka-bankda yangi hisobvara q ochgan yoki Ipoteka-bankda 6 oydan kam muddat davomida faoliyat yuritayotgan mijozlar
9	Kredit maqsadi	Asosiy vositalar sotib olish (shu jumladan, onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish)
10	Mahsulot limiti	Mijoz loyihasidan kelib chiqib belgilanadi
11	Kredit maksimal summasi	1) Yuridik shaxslar uchun - 2 600,0 mln.so'mgacha (onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun 5 mln.so'mgacha); 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - 1 300,0 mln.so'mgacha. <i>Mijozning jami majburiyatlari mazkur summalardan oshmasligi lozim</i>
12	Kredit minimal summasi	1) Yuridik shaxslar uchun - 50,0 mln.so'm; 2) Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun - 25,0 mln.so'm <i>Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun belgilanmagan</i>
13	Valyuta	Milliy valyutada
14	Kredit liniyasi	Yopiq
15	Kredit maksimal muddati	Loyihadan kelib chiqib 60 oygacha (<i>onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun 12 oygacha</i>)
16	Boshlang'ich badal	1) Kamida 36% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan) kiritilganda, kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulk, transport vositalari, maxsus texnikalar garovi ostida. Asosiy ta'minot rasmiylashtirilgunga qadar ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi olinishi mumkin; 2) Kamida 20% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan) kiritilganda, kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulklar, transport vositalari, maxsus texnikalar garovi ostida, ta'minotning yetmagan qismiga boshqa ko'char va ko'chmas mulklar olinishi mumkin. Asosiy ta'minotlar rasmiylashtirilgunga qadar ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi qabul qilinadi; 3) Kredit hisobiga inventarlar hamda uskunalar sotib olinishi nazarda tutilgan hollarda, kamida 20% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan) bilan kredit ta'minoti sifatida ko'chmas mulklar qabul qilinadi; 4) Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun 20% boshlang'ich badal (loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari hisobidan)
17	Kreditning ta'minlanganligi (%)	Kamida 130%
18	Kredit ta'minoti	Ko'chmas mulklar va transport vositalari garovi (asosiy ta'minot rasmiylashtirilgunga qadar ta'minot sifatida kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi qabul qilinishi mumkin). Asosiy ta'minot rasmiylashtirilgunga qadar kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi qabul qilinadigan holatlar: - birlamchi va ikkilamchi bozordan transport vositasini sotib olishda asosiy ta'minot rasmiylashtirilgunga qadar kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunda, birlamchi bozordan transport vositasi sotib olish nazarda tutilgan hollarda 14-darajali sug'urta polisi kamida 3 oy muddatga, shu bilan birga oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan avtomobilni etkazib berish muddatidan kam bo'lmagan muddatga tuziladi. 3-darajali sug'urta polisi (KASKO) butun kredit muddati uchun sug'urta summasi transport vositasi qiymatining 100 foiziga teng bo'ladi. - auksion orqali ko'chmas mulk va transport vositalari sotib olinayotganda asosiy ta'minot rasmiylashtirilgunga qadar kredit qaytmaslik xatarini sug'urta polisi ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin. Garov mulkini bozor qiymati bo'yicha baholashda tashqi baholovchi tashkilotning baholash hisoboti talab etiladi. (Onlayn nazorat-kassa mashinasi sotib olish uchun jismoniy shaxs kafilligi asosida)
19	Kredit foiz to'lovini qaytarish tartibi	Har oyda
20	Kredit ajratilish shakli	Yetkazib beruvchining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan. Bir martalik yoki bosqichma-bosqich o'tkazish sharti bilan amalga oshiriladi
21	Kreditni o'zlashtirish muddati	Kredit shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 3 oy
22	Moliyalashtirish manbasi	Bank o'z mablag'i hamda jalb qilingan mablag'lar hisobidan
23	Imtiyozli davr	2 oygacha
24	Kreditni qaytarish usuli	Annuitet yoki differensial usulda
25	Kredit asosiy qarz to'lovini qaytarish tartibi	To'lov muddati kelgandan so'ng oyma-oy yoki loyihadan kelib chiqib choraklik qaytarish sharti bilan
26	Muddatidan avval qaytarish	Muddatidan avval to'lash imkoniyati mavjud
27	Kreditlash jarayonida mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati	Amaldagi Kreditlash Nizomining 1-ilovasiga asosan amalga oshiriladi
28	Qo'shimcha shartlar	Boshqa tijorat banklaridan asosiy hisobvarag'i olib o'tilgan yoki ikkilamchi hisobvarag'i ochilgan mikro va kichik biznes subyektlariga kredit ajratilishi mumkin. Bankda hisobvara q ochilgan minimal muddat yoki xizmat ko'rsatishning minimal davri talab etilmaydi
29	Risklar bo'yicha cheklovlar	Risklarni tahlil qilish va modellashtirish direksiyasi tomonidan belgilanadi
30	Risk mezonlari (so'rovnomalari)	Risklarni tahlil qilish va modellashtirish direksiyasi tomonidan belgilanadi
31	Mahsulotga e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlar	Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi kompensatsiyalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi

32	Kredit foizi (%) yillik	1. Kredit shartnomasi tuzilgan sana holatiga ko'ra asosiy bank hisobvarag'i mavjud bo'lsa, kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi yillik 24,0% miqdorida belgilanadi. <i>Qarz oluvchining Bankdagi asosiy bank hisobvarag'i yopilgan taqdirda kredit bo'yicha foiz stavkasi yillik 24,9% miqdorida belgilanadi va asosiy bank hisobvarag'i yopilgan oydan keyingi oydan boshlab qo'llaniladi</i>
		2. Kredit shartnomasi tuzilgan sana holatiga ko'ra asosiy bank hisobvarag'i mavjud bo'lmasa, kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi yillik 24,9% miqdorida belgilanadi. <i>Qarz oluvchi tomonidan Bankda asosiy bank hisobvarag'i ochilganda kredit bo'yicha foiz stavkasi Qarz oluvchining yozma murojaati asosida yillik 24,0% miqdorida belgilanadi va Bank tomonidan tegishli murojaat olingan oydan keyingi oydan boshlab qo'llaniladi</i>